



ISSN 2021-9752

2025-yil, avgust 14-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



*Zamonaviy o'zbek adabiyotining tanikli namoyandalari
O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam va O'zbekiston xalq shoiri
Usmon Azimni qutlug' 75 yoshlik yubileyi bilan muborakbod etamiz!*

Gulnoz SAMANDAROVA,
Buxoro davlat universiteti,
O'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
g.v.samandarova@buxdu.uz
ORCID: 0000-0002-8251-3891



RAQAMLAR ORQALI IFODALANGAN SEMANTIK STRUKTURALARNING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarida uchraydigan raqamlar orqali shakllangan semantik strukturalar tahlil qilinadi. Raqamlarning faqat miqdoriy birlik sifatida emas, balki kognitiv, ramziy, arxetipik va aksiologik ma'no qatlamlarini ifodalovchi lingvistik vosita sifatidagi funksiyalari yoritiladi. Tadqiqotda "bir", "uch", "yetti", "qirq", "ming" kabi sonlar asosida semantik tarmoqlar (umumlashtiruvchi, baholovchi, vaqtli, timsoliy, poetik) ajratilib, ularning assotsiativ maydonlari va madaniy kodlari chuqur tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: sonlar, semantik struktura, assotsiativ maydon, kognitiv metafora, arxetip, aksiologik tarmoq, o'zbek maqollari, lingvomadaniyat, paremiologiya.

Аннотация: в данной статье рассматриваются семантические структуры, сформированные с участием чисел в узбекских народных пословицах. Числа анализируются не только как количественные единицы, но и как когнитивные, символические, архетипические и аксиологические элементы языка. На основе чисел «один», «три», «семь», «сорок», «тысяча» выделяются семантические поля (обобщающее, оценочное, временное, символическое, поэтическое), и подробно рассматриваются их ассоциативные поля и культурные коды.

Ключевые слова: числа, семантическая структура, ассоциативное поле, когнитивная метафора, архетип, аксиология, узбекские пословицы, лингвокультура, паремиология.

Annotation: this article analyzes the semantic structures formed by numbers in Uzbek folk proverbs. Numbers are examined not only as quantitative units but also as cognitive, symbolic, archetypal, and axiological elements of language. Based on numbers such as "one", "three", "seven", "forty", and "thousand", the study identifies key semantic networks (generalizing, evaluative, temporal, symbolic, poetic) and explores their associative fields and cultural codes.

Key words: numbers, semantic structure, associative field, cognitive metaphor, archetype, axiology, Uzbek proverbs, linguistic culture, paremiology.

Kirish. Raqamlar tildagi oddiy miqdor birliklari bo'libgina qolmay, turli kontekstlarda kuchli semantik yuklamalarga ega bo'lgan timsollar, ramzlar va kognitiv birliklar sifatida ham namoyon bo'ladi. Ayniqsa, og'zaki nutqda va paremiologik birliklar tarkibida ular milliy tafakkurning konsentratsiyalashgan shakli, madaniy tajribaning kognitiv ifodasi hisoblanadi. Sonlar yordamida tashkil etilgan semantik strukturalar bir vaqtning o'zida tasniflovchi, umumlashtiruvchi, normativ, aksiologik, arxetipik va stilistik funksiyalarni bajara oladi.

Tilshunoslikda sonlar bilan bog'liq semantik strukturalarni o'rganishda ular qanday **kognitiv sxema** asosida shakllanishi, qanday **metafora** va

ramziylik orqali fikrni ifodalashga xizmat qilishi, qanday **assotsiativ maydon** yaratishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar sonlar bilan bog'liq semantik strukturalarni **arxetipik asoslar** bilan ham izohlaydi. C.G.Jungning kollektiv ongsizlik nazariyasiga tayanilsa, ayrim sonlar (masalan, "7", "3", "12", "40") universal ramziy ma'noga ega bo'lib, madaniyatlararo semantik barqarorlikni saqlaydi. Jumladan, "yetti" soni ko'plab madaniy matnlarda mukammallik, ma'naviylik yoki sirli jarayonlarning timsoli sifatida paydo bo'ladi.

Asosiy qism. Paremiologik birliklar tarkibida sonlar ko'pincha **aksiologik-semantik mezon** sifatida ishlatiladi. Ya'ni ular baholash, o'lchash,

solishtirish, orttirish, umumlashtirish kabi jarayonlarda asosiy nutq birligi bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, *“Ming do'st oz, bir dushman ko'p”* kabi maqollarda *“ming”* va *“bir”* sonlari orqali insoniy qadriyatlar kontrasti kuchli semantik effekt bilan berilgan. Bu kabi strukturalar raqamlarning nisbiy miqdor emas, balki ijtimoiy-emotsional yuklamaga ega semantik birliklar sifatidagi rolini yaqqol ko'rsatadi.

Shuningdek, raqamlar yordamida tashkil topgan semantik tuzilmalar **ritmik, poetik va fonetik jihatdan uyg'unlik** yaratuvchi vosita sifatida ham nutqning estetik qadrini oshiradi. Bu holat, ayniqsa, maqollar, matallar va aforizmlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Misol uchun, *“Uch karra o'ylab, bir karra ayt”* kabi tuzilmalar sonlarning takrorlanishidagi melodik ketma-ketlik bilan yodda saqlanishini va avloddan avlodga o'tishini ta'minlaydi.

Tilshunos olimlar (N.I.Tolstoy, G.L.Permyakov, G.V.Kolshanskiy, A.Kunin, V.M.Mokiyenko va b.) turli tillardagi sonli birliklarning semantik mexanizmini chuqur o'rgangan. Ularning fikricha, sonlar orqali yaratilgan paremiologik birliklar doimo kontekstual, pragmatik va lingvomadaniy omillar bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Ya'ni raqamlar har doim zamonaviy nutq modelida ham tarixiy-madaniy semantika tashuvchisi sifatida saqlanib qoladi.

Shunday qilib, raqamlar va son komponentlari bilan yaratilgan semantik strukturalar tilshunoslikda mustaqil semantik-kognitiv tahlil obyekti bo'lishi bilan birga, ularning lingvokulturologik va pragmatik yo'nalishlarda o'rganilishi ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Sonlar bilan bog'liq semantik strukturalarda assotsiativ maydon – bu til birliklarining (ayniqsa, maqollar va iboralar tarkibida qo'llanilgan raqamlar) atrofida hosil bo'ladigan obraz, tushuncha va mental bog'lanmalar tizimidir. Assotsiativ maydon kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, tilshunoslikda inson tafakkuri va nutqdagi psixosemantik aloqalarni aniqlashga xizmat qiladi.

Assotsiativ maydon – bu biror til birligi (masalan, *“uch”*, *“yetti”*, *“qirq”*) eshitilganda, kishining ongida yuzaga keladigan boshqa birliklar, tasavvurlar, qadriyatlar, hissiy holatlar va madaniy belgilar majmuidir. Bu maydon: individ ongida psixolingvistik mexanizm sifatida shakllanadi; jamoaviy ongda esa madaniyat, tarixiy tajriba va folklor asosida barqarorlashadi; maqollar, matallar, iboralar esa ushbu maydonni ifodalovchi asosiy material hisoblanadi.

Semantik strukturalarni assotsiativ maydon orqali tahlil qilish:

– maqollarda raqamlarning semantik chuqurligini aniqlashga yordam beradi;

– turli tillardagi maqollarning lingvokognitiv farqlari va o'xshashliklarini tahlil qilish imkonini beradi;

– maqollarni mental xaritalash orqali psixosemantik jihatdan sinflashga imkon beradi;

– son komponentli birliklarning lingvomadaniy kodini ochadi.

1. *“Bir”* sonining assotsiativ maydoni.

Assotsiatsiyalar: yagona, boshlanish, boshchilik, yetakchilik, muhimlik, asos. **Maqol:** *“Ming qo'shchiga bir boshchi”*. Bu yerda *“bir”* soni rahbarlik, ustunlik, iyerarxiya ramzi sifatida ishlatilgan.

2. *“Uch”* sonining assotsiativ maydoni.

Assotsiatsiyalar:

– barqarorlik: uchlik xalq tafakkurida yakunlangan sikl (aylanma harakat) (boshlanish–davom–natija) modelidir.

– tafakkur modeli: xalq og'zaki ijodida *“uch marta”*, *“uch kun”*, *“uch avlod”* kabi iboralar aniq ritm va o'zgarish maromini ifodalaydi.

– zamonaviy psixolingvistik yondashuvda *“uch”* – bu qabul qilish – qayta ishlash – amalga tatbiq bosqichlari bilan uyg'un tushadi.

Maqol: *“Uch kun barvaqt turgan – bir kun yutar”*. Ushbu maqolda *“uch”* soni aniq vaqt birligi bo'lishi bilan birga, assotsiativ maydon doirasida mantiqiy rivojlanish, sabr, intizom va samara tushunchalari bilan bog'liqdir. *“Uch kun barvaqt turgan”* degan jumlada barvaqt turish – bu mehnatsevarlik, intizom va tashabbusni anglatadi. *“Bir kun yutar”* – bu mehnat samarasining metaforik ko'rinishi. Demak:

– *“uch”* bu yerda ketma-ket va uzluksiz harakat, odatga aylangan mehnat faoliyatining belgisi;

– *“bir kun yutar”* esa – taqdir, baraka yoki mukofot sifatida talqin qilinadi;

– maqol xalq tasavvurida mehnat–sabr–muvaffaqiyat modelining obrazli ifodasidir.

3. *“Yetti”* sonining assotsiativ maydoni.

Assotsiatsiyalar: barakot, to'liqlik, sirli raqam, yetuklik (haftaning 7 kuni, diniy timsol). **Maqol:** *“Yetti o'lchab, bir kes”*. *“Yetti”* – bu yerda ehtiyotkorlik va fikrning mukammallik darajasini bildiruvchi ramziy son sifatida ishlatilgan.

4. *“Qirq”* sonining assotsiativ maydoni.

Maqol: *“Qo'rqmas qirq yil qirg'inda yursa ham qilich o'tmas”*.

Assotsiatsiyalar:

• uzoq muddat – *“qirq yil”* bu yerda aniq 40 yil emas, balki umrning katta qismi, uzoq davom etgan sharoit yoki holat.

• sinov va sabr – “qirg’inda yursa ham” deganda, doimiy xavf ostida bo’lsa-da, chidash va bardoshni ko’rsatgan.

Bu maqolda “qirg’” sabr-toqat, davomiylik va o’zgarishga tayyorlik semantik maydonida qo’llanilgan. Bu maqolda “qirg’” soni real vaqt birligi bo’lishdan ko’ra, xalq ongida shakllangan assotsiativ simvolik birlik sifatida qatnashadi. “Qirg’” soni islomiy, etnografik va mifologik kontekstda hamisha tozalanish, sinovdan o’tish, sabr me’yori bilan bog’liq. (Masalan: qirg kunlik motam, qirg kundan keyin tug’ilish marosimlari).

Xalq tafakkurida “qirg’” soni – bu biror fazilat yoki holatni chuqur egallashga sarflanadigan vaqt. Bu yerda “qo’rqmas” qahramon sinovdan o’tib, ruhan yengilmas kuchga aylangan.

Xulosa. Assotsiativ maydonni o’zbek maqollarida tahlil qilish orqali shuni anglash mumkinki, raqamlar

tildagi oddiy kvantifikatorlar (miqdor ifodalovchilar) emas, balki **ijtimoiy, axloqiy, kognitiv va madaniy ramzlar tizimini** tashkil etuvchi semantik markazlarga aylanadi. Har bir son atrofida vujudga kelgan **tasavvurlar tizimi, mental stereotiplar va milliy dunyoqarash** xalq maqollari orqali mustahkamlanib, avloddan avlodga uzatiladi.

O’zbek xalq maqollarida raqamlar orqali shakllangan semantik tarmoqlar – bu nafaqat tilning badiiy boyligini, balki xalq tafakkurining qatlamli va murakkab tuzilishini ochib beruvchi lingvokognitiv manba hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, har bir raqam o’ziga xos assotsiatsiyalarga ega bo’lib, bu orqali axloqiy mezonlar, qadriyatlar, muomala normalari va tarixiy-madaniy tajriba ifodalanadi. “Qirg’”, “yetti”, “uch” kabi sonlar faqat miqdor emas, balki madaniy va emotsional yuklamaga ega bo’lgan obrazlar tizimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – P. 23–45.
2. Мокиенко В.М. *Словарь русской фразеологии*. – Москва: Русский язык, 1998. – С. 412–413.
3. Толстой Н.И. *Этнолингвистика и фольклор*. – Москва: Наука, 1995. – С. 237–239.
4. Шомақсудов Қ., Шораҳмедов Ш. Маънолар маъзани. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 217.
5. Langacker R.W. *Foundations of Cognitive Grammar. Volume I: Theoretical Prerequisites*. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – P. 144–168.
6. Bozorov Z.A. International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: problems and solutions” “Imperial College London” 2021-2022. 165-169 6.
7. Bozorov Z.A. Essence, structure and functions of civil culture. International engineering journal for research & development. Published in Volume 6 Special Issue , January 2021 of IEJRD E-ISSN: 2349-0721 , Peer Reviewed & Referred Journal.
8. Bozorova G. Formation of abbreviations in medical terminology in uzbek language //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 86-89.
9. Samandarova G. Y. Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects. Current research journal of philological sciences, 2 (05), 39–42. – 2021.
10. Samandarova , G. Y. (2023). Basis of the lexical sentence group “insect” in the form of a compound sentence. *International scientific conference “ innovative trends in science, practice and education”*, 2(4), 59–67. Retrieved from <http://academicsresearch.ru/index.php/iscitspe/article/view/1493>
11. Bozorov Z. A. “Exceptional role of motives and needs within the formation process of civic culture in students’ community.” *Journal of Advanced Zoology* 44 (2023): 3236-3244. <https://jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1595>
12. Ashurovich, Bozorov Zayniddin. “Great Oriental Intellectuals about Civil Culture.” *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal* 2 (2023): 21-24. <https://innosci.org/wos/article/view/968>
13. Samandarova G.Y., Yusupova A.Sh. Specific characteristics of paremas formed on the basis of “Insect” LMG in a simple sentences // Best journal of innovation in science, research and development. Volume 2 No 6 (Jun 2023). ISSN: 2835-3579 .(Impact factor: SJIF=9.1)
14. Samandarova G.Y. Sodda gap ko’rinishidagi “hasharot” lug’aviy ma’no guruhlarini asosida shakllangan paremalarning o’ziga xos xususiyatlari // Scientific reports of Bukhara state university. 2023/1 (84). –B. 161-165.

Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov,
Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov,
Abdurahim Nosirov, To'liqin Saydaliyev,
Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva,
Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev,
Salima Jumayeva, Qayum Baymirov,
Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov,
Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov,
Madina Nuriddinova, Barno Kadirova,
Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova,
Yuldots Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov,
Feruza Manukyan, Gulchexra Keldiyorova,
Gulsanam Xolikulova, Komiljon Qarshiyev,
Svetlana Umirova, Xolmo'min Fayzullayev,
Nilufar Namazova, Dilbar Niyazova,
Sayyora Halimova, Shaxnoza Yunusova,
Nigoraxon Ro'zibayeva, Tadjixon Sabitova,
Oqila To'raqulova.

Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:

Bibimayam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:

(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi
338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika
hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Dildora OMONOVA.

ONA TILI DARSliklari MAZMUNINI

TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI 3

Abdulhamid XOLMURODOV.

QISSADA YANGICHA TALQIN: TABIAT VA INSON 6

Nasiba BOZOROVA.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING

"KITOBAT UL ATFOL"

O'QUV QO'LLANMASI XUSUSIDA 9

Shavkat IBRAGIMOV.

A.KARIMOV.

IQTISODIY TELEKO'RSATUVLARDAGI

BOSHLOVCHI MAHORATI MASALALARI 12

Adolat NURALIYEVA.

ALISHER NAVOIYNING «LAYLI VA MAJNUN»

DOSTONIDAGI QAHRAMONLARINING

FOLKLORDAGI ZAMINI 16

Ro'zixon MAVLONOVA.

OSHIQ KO'NGILLAR IZHORI 19

TILSHUNOSLIK

Dilnoza JUMAYEVA.

OG'ZAKI NUTQNI TANIB OLISH

TIZIMIDA MATNDAGI

TINISH BELGILARINI TIKLASH USULLARI 24

Xusan BERDIYEV.

Charos ISMOILOVA.

LINGUISTIC INTEGRATION OF TURKISH

WORDS INTO ENGLISH: HISTORICAL.

CULTURA AND PSYCHOLINGUISTIC BASIS 27

Nilufar KOMILOVA.

TILDA GENDER HODISASINING

UMUMLISONIY NAZARIYASI MUAMMOLARI 29

Gulnoz SAMANDAROVA.

**RAQAMLAR ORQALI IFODALANGAN SEMANTIK
STRUKTURALARNING UMUMIY
XUSUSIYATLARI32**

Gulmira ABSALAMOVA.

**FRANSUZ ADABIY TERMINLARINING SEMANTIK
VA DEFINITSION TAHLILI: "DICTIONNAIRE DES
LITTÉRATURES DE LANGUE FRANÇAISE"
LUG'ATI ASOSIDA.....35**

Maftuna UBAYDULLAYEVA.

**O'ZBEK VA QIRG'IZ MORFOLOGIK TERMINLARI:
OT SO'Z TURKUMI TAHLILI37**

Nigina RASHITOVA.

**PSIXOLINGVISTIK KONTEKSTDAGI INSON
XARAKTERINI IFODALOVCHI LEKSIK
BIRLIKLAR TAHLILI.....40**

Malika IBODOVA.

**O'ZBEK TILIDA SHAXS MA'NAVİYATINI
IFODALOVCHI BIRLIKLARNING TADQIQI
MUAMMOLARI.....43**

Nargiza QODIROVA.

KOMPONENT TAHLILDA MISOLLAR.....47

Nafisa KHAMROYEVA.

**THE RICHNESS OF THE LANGUAGE.
ITS FUNCTIONS AND IMPORTANCE IN
DIALOGIC DISCOURSE.....50**

ADABIYOTSHUNOSLIK

Asliddin ISMATOV.

XALQ ERTAKLARIDA O'XSHASH OBRAZLAR54

Sanobar ULLIYEVA.

**O'TKIR HOSHMOVNING
"DUNYONING ISHLARI" QISSASIDA LISONIY SHAXS
VA NUTQIY PORTRETNİ SHAKLLANTIRUVCHI
LINGVISTIK OMILLAR.....57**

Shohsanam ABDUMANNAPOVA.

**ALISHER NAVOIYNING "FARHOD VA SHIRIN",
"LAYLI VA MAJNUN" DOSTONLARIDA BADIY
SAN'ATLAR VA QOFIYA MUNOSABATI60**

To'ra Tosh Muhammad ZARIF.

**HOFIZ XORAZMIY DEVONINING
ILMIY MONOGRAFIK TAVSIFI64**

Dilorom SHOMURODOVA.

**SHAROF BOSHBEKOV DRAMALARIDA
ZIDDIYAT (KOLLIZIYA)LAR TALQINI.....67**

Dilnoza OLIMOVA.

**ALISHER NAVOIY ORIFONA G'AZALIDA
ISHQ VA FANO TUSHUNCHALARI:
"TARIQI ISHQ ARO GAR O'ZNI FARD
QILSA BIROV..." G'AZALI ASOSIDA.....71**

Gulruh KENJABOY.

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA
"MUBAYYAN" ASARINING TUTGAN O'RNI.....74**

Arata ОСИПОВА.

**ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНОЕ НАЧАЛО В
ТВОРЧЕСТВЕ ВИКТОРА ПЕЛЕВИНА76**

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

G'olibjon OTAMURODOV.

**O'tkirjon XAPIZOV.
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TABIIY
FANLARNI O'QITISHDA SHAXSIYLASHTIRILGAN
TA'LIM METODIKASI.....80**

Zarnigor SHAROPOVA.

**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA
INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH ORQALI
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH.....83**

Sanobar SUBXONOVA.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA
TO'G'RI YOZISHGA O'RGATISHNING PEDAGOGIK,
PSIXOLOGIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....86**

Baxtiyar NAMANOV.

**THE ROLE OF LITERATURE LESSONS IN
EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT
OF NATIONAL VALUES.....89**

TADQIQOTLAR

Nodir RAMAZONOV.

**"BOBURNOMA"DA "YUKUNMOQ"
FE'LI VA ETIKET92**

Lola RASHIDOVA.

**TALABALARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI
VR VA AR TEXNOLOGIYALARNING INTEGRATSIYASI
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH.....95**

To'liqinjon ERGASHEV.

**O'ZBEK TILIDAGI LUG'ATLARDA
NEOLOGIZMLARNING BERILISH HOLATLARI97**

Dilafroz ERGASHEVA.

**"YAXSHI NIYAT - YARIM DAVLAT"
O'ZBEK PAREMILOGIYASIDA IJTIMOY
QADRIYATLARNING IFODALANISHI99**

Iroda MIRMAXMUDOVA.

**DIPLOMATIK MATNLAR TARJIMASIDA
KOMPOZITSION YAXLITLIGINI
SAQLASH MASALALARI102**

Maftuna QURBONOVA.

**SURXONDARYO VILOYATIDAGI
ETNOTOPONIMLARNING TARIXIY-ETNIK ASOSLARI
VA LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI.....105**

Zumrad ABDURAHMONOVA.

**QASHQADARYO VILOYATI ZIYORATGOH
NOMLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI109**

Nilufar ABDUKARIMOVA.

**BADIY DISKURSDA SO'ZLOVCHI-INSON
ROLINING PRAGMALINGVISTIK
XUSUSIYATLARINING IFODALANISHI112**

Shahzoda MIRSHARIPOVA.

**SHODIMULK SULTON OBRAZI:
TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN115**

Parizoda AXRORXO'JAYEVA.

**CHO'LPONNING "QOR QO'YNIDA LOLA"
HIKoyASIDA ZAMON KAYFIYATINING
NAMOYON BO'LISHI.....118**